

YOSHLARDA XORJIY TILDA BILIM VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Ortiqova Shahlo Maxmud qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, 3-bosqich talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga doir ko'plab islohotlar mavjud. Shuningdekushbu maqola xorijiy til konikmalariga asoslangan bolib yoshlarda xorijiy tilni rivojlantirishga bag'ishlangan. Mamlakatimizdagi ro'y berayotgan o'zgarish hamda islohotlar haqida malumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *texnologiyalar, innovatsiya, maktab, ta'lim, taraqqiyot, bilim, islohot, malaka.*

Bugungi kunda biz innovatsion texnologiyalar asrida yashab kelmoqdamiz. Zamonamiz kundan kunga taraqqiy etmoqda. Mamlakatimiz esa rivojlanish bosqichlaridan shiddat bilan o'tib bormoqda. Bu esa biz yoshlarga ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Har tomonlama iqtisodiy, siyosiy taraflardan taraqqiy etyotgan zamonda biz yoshlar uchun ham ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, o'sib kelyotgan yosh avlodga ya'ni maktab, litsey hamda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan kelajak bunyodkorlarida keng imkoniyatlar eshiklari ochilmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o'qitish ularga yoshikdan to'g'ri ta'lim berish maqsadida hozirda bog'cha (ya'ni maktabgacha ta'lim) yoshidandan ularga chet tillari o'qitilmoqda. Bu esa maktab yoshiga yetgan bolalarda chet tillari ko'nikmalari bo'yicha asos bo'lmoqda. Nafaqat chet tillari, balki hozirgi kunda boshqa fanlar ham mukammal tarzda o'rgatilmoqda. Bundan tashqari ham biz yoshlar uchun bilgangan va bilmagan imkoniyatlar qanchadan qancha. Shunday ekan bizdan faqatgina mana shu imkoniyatlardan to'g'ri va unumli foydalanish talab etiladi. Doimo bilim olib izlanishda davom etib, rivojlanib taraqqiy etib kelyotgan yurtimizda biz uchun yaratilgan imkoniyatlarni, Prezidentimiz tomonidan berilyotgan qulayliklarni oqlashimiz kerak. Yurtimiz ko'proq gullab yashnashi uchun esa chet tillarini mukammal o'rganib yurtimiz bayrog'ini yuksak marralarga yetkazadigan darajadagi cho'qqilarga chiqishimiz kerak. Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim tajribasi va kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir. Yoshlarni hayotda o'z o'rinlarini topishi, o'z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta'minlash doimo davlatimizning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Maqolada yoshlarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda amaliyotlarni o'rni obektiv yoritilgan. Tashabbuskorlik sifati insonlarning ichki faollik omillari: birinchidan, har bir kishining o'z qiziqishi, o'quv qobiliyatiga mos hayot yo'lini topish orqali o'z qadrini ro'yobga chiqarish bo'lsa, ikkinchidan shaxsiy manfaatdorlik, shaxsiy mulkning faqat moddiy emas, balki ma'naviy qadriyatlarini ishga tushirish orqali o'zini va davlat, jamiyat va olamni takomillashtirishga hissa qo'shishdan iborat. Bunda albatta yoshlarning o'ziga xos xususiyatlarini, qobiliyati, qiziqishlarini hisobga olish lozim. Bu ularda kasbga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish imkonini beradi. Yoshlarda kasbiy bilim olishga motivatsiyani shakllantirish uning kelgusidagi kasbiy faoliyati haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishi - bu uning mutaxassis sifatida ongli ravishda o'zini-o'zi maqsadga yo'naltirilgan holda kasbiy rivojlantirish jarayonidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isakova Ravshana Karimjanovna, & Tursunova Inobat Mirkamilovna.(2022). Teaching Russian in Uzbek groups in universities.Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 121-122. Retrieved from
2. <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/1981>
3. Berdieva Mukarrama Anvarovna, Bazarova Shohida Ashirkulovna Lexical And Grammatical Features Of The Compilation Of The RCT Textbook .The American Journal of Social Science and Education Innovations,3(05), 429-431.
4. Isakova Ravshana Karimzhanovna, & Begmatova Navruza Abdukhamedovna. (2021). THE NEXT STEP TO INNOVATION-ORIENTED EDUCATION IS THE IMPLEMENTATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES INTO THE